

BIRIKMALI TERMINLARNING STRUKTURASI VA SEMANTIK- FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Raxmatullayeva Nigora Erkinpo'latovna

Namangan davlat texnika universiteti qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi

E-mail: nigora@gmail.com

+998 88 231-58-18

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21433829>

Annotatsiya: Ushbu maqolada birikmali terminlar va ularning qo'llanishi me'morchilik sohasi bilan bog'liq leksemalarning tizimli tasnifi va ularning semantik-struktural xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: birikmali terminlari, semantik-struktural xususiyatlar, terminologik differensiasiya, etimologiya, denotativ ma'no, konnotativ ma'no

СТРУКТУРА И СЕМАНТИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ СОСТАВНЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация: В данном научном исследовании с лингвистической точки зрения проводится системная классификация лексем, связанных с областью архитектуры, а также анализируются их семантические и структурные особенности.

Ключевые слова: семантико-структурные особенности, терминологическая дифференциация, этимология, денотативное значение, коннотативное значение, полисемантические единицы

STRUCTURE AND SEMANTIC-FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF COMPOUND TERMS

Annotation: This scientific study provides a systematic classification of lexemes related to the field of architecture from a linguistic perspective and analyzes their semantic and structural features.

Keywords: *linguistic analysis, semantic-structural features, terminological differentiation, etymology, denotative meaning, connotative meaning*

Ma'lumki, ilmiy bilimlarning kengayib borishi bilan nazariy jihatdan murakkab atamalar ham iste'molga kirishi tabiiy holat hisoblanadi. Me'morchilik oddiy xalq me'morchiligida muayyan kasb-hunar yo'nalishini ifodalasa ham, zamonaviy ilmda alohida fan hamdir. Me'morchilik aslida azaldan murakkab ilm hisoblangan va handasa, riyoziyot, geodeziya kabi sohalar bilan aloqadorlikda rivojlangan. Zamonaviy ilm-fan tarmog'i sifatida bugungi kunda mazkur fanning bir qator yo'nalishlari yuzaga kelgan va shu sohalar bilan aloqador murakkab tarkibli terminlar ham paydo bo'lgan. Murakkab atamalar nafaqat muayyan tizimdagi tushuncha mazmunini to'liq ifodalaydi, nazariy jihatdan tushunchaning mazmuniy ifodasini tilda to'liq voqelantiradi.

Adabiy til va terminologiyaning sintaktik usul bilan o'zaro bog'liqligi masalasini o'rgangan terminshunos V.P.Danilenko ushbu tizimda turli farqlanishlar mavjudligini ta'kidlaydi: "Gap shundaki, so'z birikmalarining leksikalashuvi bilan murakkab va qo'shma so'zlar hosil bo'ladi, ikkinchidan, leksik birliklardan tashkil topgan qo'shma terminlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning ishtirokidan hosil bo'ladi." [1]

Tarkibli me'morchilik terminlarida so'z turkumlarining ishtirokini va chegarasini quyidagicha izohlashimiz mumkin.

1-jadval

Ikki komonetli birikmali termin modellari

T/r	Model strukturalari	Birikmali terminlar
1.	Ot+ot modeli	avtomobilyo'li, ankerningtubi, armatureto'ri, armaturefiksaturalari, armaturalarsinfi, asosbosimi, asosturg'unligi, bikrliqovurg'asi, bikrlikyadrosi,

		<i>bikrlikbelbog'i, bino sinchi, binoturg'unligi, bosimsignalizatori, ventilyatsiyabloki, vulqonkuli, devortirgak, derazaromlari, derazatabaqasi, yog'ochqatroni, yog'ochtolasi, yong'inxabarlagichi, zinapoyakatagi, zo'riqishkonsentratsiyasi, inshootasosi, issiqliktarmog'i, yo'lqoplamasi, yashinqaytargich</i>
2	Sifat+ot modeli	<i>Ajratgichtasma, ajratuvchidevor, akustikqorishma, akustikmaterial, alkidlismola, alyumosilikatli olovbardoshlar, ankerlibolt, ankerlipoydevor, ankerliplita, antiseysmikbelbog', antropogenlandshaft, antropogenhodisa, aralashkonstruksiya, arkasimonto'sin, armaturalikarkas, asbestsementlipanel, asosiykuchlanish, asosiyqorishma, asfaltlimastika, betonlipanel, betonlihalqa, blokliytqizma, bog'lovchimaterial, bog'lovchito'sin, bo'ylamaqator, bo'rtuvchangruntbo'shliqlig'isht, bo'shliqlitosh,</i>
3.	Sifat+fe'l modeli	<i>Korroziyali yorilish, ko'ndalang armaturalash, mexanik zo'riqish, mukammal ta'mirlash,</i>
4.	Ot+fe'l modeli	<i>Armaturani taranglashtirish, armaturani ankerlash, armaturani payvandlash, betonni karbonatlash, zaminni mahkamlash, korroziyaga sinash, krater shakllanishi, yadroning chirishi</i>
5.	Fe'l+ot	<i>Ajratilgan hudud, ajratish manzili, armaturalangan choklar, balandlashtirilgan arka, boyitilgan qum, burg'ulash qoziqlari, bo'yaladigan spirt, yelimlangan mahsulot, yetishish radiusi, zo'riqtirilgan beton, kombinatsiyalangan tizimlar, koshinlash profili,</i>

		<i>maydalangan ohak, mahkamlash karkasi, muzlaydiga grunt, sizdiish maydonlari, sovutilgan grunt</i>
--	--	--

2-jadval

Uch komponentli birikmali termin modellari

T/r	Modellar	Birikmali terminlar
1.	ot+sifat+ot	Yuk ko'taruvchi o'zak, yuk ko'taruvchi tizim, shlak bog'lovchili beton, shshamozaikali plitka, sementning asosiy komponentlari, sement bog'lovchili beton, to'sinning minimal balandligi, tovush yutuvchi material, qoya toshli grunt
2.	ot+ot+ot	Sementning nazorat sinovlari, sementning korroziyaga chidamliligi, suyuqlik oqimi signalizatori, metal yog'och konstruksiyalar, quvur o'tkazgich elementlari
3.	fe'l+fe'l+ot	Maydalab elangan materiallar,
4.	sifat+ot+ ot	Yassi yog'och konstruksiyalar, ustki beton qatlami, tabiiy shag'al tosh, tabiiy yog'och material, sun'iy yog'och material, qoziqli poydevor qopqog'i
5.	ot +fe'l +ot	Tom yopish temiri, suv yuqtirmaydigan qorishma
6.	fe'l + ot+ot	Eritilgan aralashmaning zichligi, qurilish-montaj ishlari
7.	fe'l+sifat+ot	O'pirilishga qarshi galereya, sizishga qarshi to'siq, muzlaydigan sochiluvchan grunt, qoliplangan olovbardosh buyumlar
8.	sifat+sifat+ot	Shamollatiluvchi to'suvchi qurilma, oksidli olovbardosh buyumlar, madaniy texnologik landshaft, kontaktli nuqtali payvand
9.	Son+sifat+ot	Yarim qoyatoshli grunt, uch qatlamli panel,
10.	Sifat+ot+fe'l	Yumshoq shakl o'zgarishi

11.	Sifat+fe'l+ot	Texnologik loyihalashtirish me'yori, termik zachlangan lenta, qorishmasiz teriladigan yotqizma
-----	---------------	--

Ikki soʻzning birikuvidan hosil boʻlgan leksik birliklar ham sintaksisda, ham leksikada, xususan, uning terminologik sistemalarida oʻrganiladi. Bu oʻrindagi farq shundaki, sintaksisda asosan erkin birikmalar, terminologiyada esa terminologik funksiyani bajaruvchi, yuqori darajada predmetlik, mantiqiylik, shartlanganlik mazmunini keltirib chiqaruvchi turgʻun birikmalar qoʻllanadi.

Biz tadqiqotimizda uch komponentli tarkibli terminlarda soʻz turkumlarining ishtirokiga koʻra me'morchilik terminlarning 11 ta modelini, koʻp komponentli terminlarning 6 ta modelini tahlil qildik (2-, 3-jadvallar).

3-jadval

Koʻp komponentli birikmali termin modellari

Koʻp komponentli birikmali terminlar modellari		
T/r	Model	Terminlar
1.	ot+ot+sifat+ot	Bino va inshootlarning ichki me'morchiligi
2.	ot+sifat+sifat+ot	Tomonlari mutanosib uzluksiz toʻsin
3.	ravish+sifat +sifat +ot:	Sekin qotuvchan bogʻlovchi modda, koʻp tarkibli bogʻlovchi modda
4.	ot+fe'l+sifat++ot	Texnikada ishlatiladigan oʻta mustahkam ganch

Termin, tarkibli termin tushunchalari borasida terminologiya sohasida izohtalab masalalar talaygina koʻrinadi. Bu borada, N.Mahkamov "Terminologiyada, jumladan, oʻzbek terminologiyasida hozirgi kunda qoʻshma, juft, sostavli (birikma) terminlar chegarasi, ularning terminologiyada qoʻllanilish mezonlari belgilanmagan, ularning orfografiyasida esa qator chalkashliklar mavjud. Bugungi kunda fan va texnikaning rivojlanishi natijasida koʻplab yangi terminlar vujudga kelyapti, bu esa, oʻz navbatida, terminologiyadagi bu masalani yanada murakkablashtirmoqda" [2], deb ta'kidlaydi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, me'morchilik terminlarning tarkibli hosil bo'lishida so'z turkumlarining ishtirokiga ko'ra sifat va ot so'z turkumlarining ishtiroki faoldir. Ayniqsa, ot so'z turkumining ishtiroki boshqa so'z turkumlariga nisbatan ancha faol hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, me'morchilik terminlari orasida birikmali terminlarning hosil bo'lishida aniqlovchi+aniqlanmish qolipi yetakchi hisoblanadi hamda muayyan asos so'zlar ishtirokida o'nlab birikmali terminlar yuzaga keladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, biz mazkur birikmali terminlar manbasi sifatida "Binokorlikdan Ruscha-o'zbekcha atamalar lug'ati" ga tayandik. Mazkur birikmali terminlarning bir qismi hosil bo'lishida kalkalash usulidan foydalanilganini kuzatdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 170.
2. Маҳкамов Н. Ўзбек тили терминологиясида жуфт терминлар ва уларни тартибга солиш (физика ва техника терминлари мисолида) // Ўзбек тили илмий-техникавий терминологиясини тартибга солиш принциплари. – Тошкент, 1991. – Б. 68.
3. Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 32.